Oliy ta'lim tizimiga jalb etilayotgan investitsiyalar turli manbalar orqali shakllanib, ular infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalar nafaqat moddiy resurslar hajmini oshiradi, balki yangi bilim va texnologiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ta'lim sifatini yaxshilash imkonini ham yaratadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining umumiy moliyaviy holatini mustahkamlash va ularning uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomada "...Oliygozlarning o'zida qoladigan mablag'larning 10 foizi ham inkubatsiya markazlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi... Bundan tashqari, Markaziy bankda Fintex ofisi va Innovatsion xab tashkil etilib, unga Singapurdan mutaxassislar jalb qilinadi. Bu orqali yiliga 20-30 ta fintex startapni tashqi bozorga olib chiqish, ularga jami 1 milliard dollar investitsiya jalb etish imkoniyati yaratiladi...Umuman, vechur fondlar, startaplar, fintex kabi yangi moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish, bu sohadagi barcha ishtirokchilar huquqlarini qonun bilan kafolatlab qo'yish zarur."<sup>2</sup> Mazkur tashabbuslar doirasida yiliga bir necha o'nlab innovatsion loyihalarni xalqaro bozorlarga olib chiqish hamda ularga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini yaratish ko'zda tutilmoqda. Shu bilan birga, vechur moliyalashtirish, startaplar va fintex kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish, ushbu sohadagi ishtirokchilarning huquqiy himoyasini kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida investitsion faollikni oshirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarni oshirish orqali oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlikni baholash jarayoni faqat investitsiyalar hajmini aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning iqtisodiy samaradorligini, daromad keltirish darajasini va moliyaviy oqimlarning uzluksizligini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Shuningdek, investitsiyalarning natijadorligi ularning qanchalik oqilona taqsimlangani va boshqarilgani bilan ham bevosita bog'liqdir.

Mazkur yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholashda bir qator muhim ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish zarur. Jumladan, aktivlar hajmi va ularning tuzilmasi, o'z mablag'lari ulushi, daromad manbalarining xilma-xilligi, investitsiyalar hajmi va ulardan olinayotgan iqtisodiy samaradorlik, shuningdek, moliyaviy mustaqillik va likvidlik darajasi asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi. Ushbu ko'rsatkichlar investitsiyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, investitsiyalarni oshirish va ularning samaradorligini tizimli baholash mezonlarini ishlab chiqish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki oliy ta'lim tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, turli ilmiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Biroq mazkur yondashuvlarni umumlashtirganda, moliyaviy barqarorlik iqtisodiy tizim yoki alohida subyektning uzluksiz faoliyat yuritish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash qobiliyati sifatida qaraladi. Milliy tadqiqotlarda ushbu tushuncha asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida o'rganilib, ularning moliyaviy mustahkamligi, raqobatbardoshligi va rivojlanish salohiyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi<sup>3</sup>. Shu bilan birga, O'zbekiston amaliyotida moliyaviy barqarorlik moliyaviy tizimning iqtisodiy ehtiyojlarni uzluksiz moliyalashtirish hamda turli tashqi va ichki ta'sirlarga bardosh berish qobiliyati bilan izohlanadi<sup>4</sup>.

Moliyaviy barqarorlikni baholash masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ko'rsatkichlar tizimi muhim o'rin tutadi. Xususan, T.S. Malikov moliyaviy barqarorlikni baholashda umumiy va nisbiy ko'rsatkichlar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi. <https://lex.uz/docs/6600413>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025 <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

3 Bekbayeva F.B. Analysis of the financial stability of an economic entity, "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnali, 325-332 bb., <https://zenodo.org/records/15640368>.

4 [Moliyaviy barqarorlik haqida - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki](#)



tizimini qo'llashni taklif etib, u orqali subyektning moliyaviy mustaqilligi va kapital tuzilmasini aniqlash mumkinligini asoslaydi<sup>5</sup>. M.Q. Pardayev va B.I. Isroilovlar esa moliyaviy barqarorlikni o'z mablag'lari va umumiy moliyaviy resurslar o'rtasidagi nisbat orqali aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi<sup>6</sup>. Mazkur ilmiy yondashuvlar moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'rsatkichlar tizimining muhimligini asoslab bersa-da, ularning aksariyati umumiy xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida daromad manbalarining ko'p tarmoqliligi, ilmiy va ta'lim faoliyatining uyg'unligi hamda investitsiyalarning uzoq muddatli qaytimi kabi jihatlar alohida yondashuvni talab etadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda investitsiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi masalalari keng yoritilgan. Klassik iqtisodiy nazariyada investitsiya qarorlarining shakllanishi kutilmalar va noaniqlik omillari G.M.Keyns<sup>7</sup> tomonidan izohlangan, shuningdek, tavakkalchilik va noaniqlik tushunchalarining farqlanishi investitsiya faoliyatining mohiyatini tushinishda muhim ahamiyat kasb etishi F.Nayt<sup>8</sup> tomonidan tavsiflangan. Zamonaviy yondashuvlarda esa investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qaralib, ayniqsa ta'lim sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashi G.S.Bekker<sup>9</sup> tomonidan asoslab berilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlari yetarli darajada kompleks ishlab chiqilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda moliyaviy barqarorlik umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholangan bo'lib, investitsiyalarning ushbu jarayonga ta'sirini to'liq aks ettiruvchi indikatorlar tizimi yetarlicha shakllantirilmagan. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining daromadlar tarkibi, xizmatlar bozori va ilmiy faoliyat natijalari bilan bog'liq jihatlar yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlikni baholashda investitsiyalar hajmi, ularning samaradorligi, daromad keltirish darajasi hamda resurslardan foydalanish natijadorligini o'zida mujassam etgan kompleks ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish muhim ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsiyalar hajmini kengaytirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ilmiy asoslashga qaratilgan yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini rasmiy statistik ma'lumotlar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning moliyaviy barqarorlik va investitsiya samaradorligini baholashga oid ilmiy qarashlari tashkil etadi.

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy-statistik usullardan kompleks foydalanildi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ko'rsatkichlari va investitsion faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida analitik yondashuvlardan foydalanildi. Xalqaro tajribani o'rganish asosida oliy ta'lim tizimida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash usullari tahlil qilindi va ularning mos jihatlari milliy sharoitlarga moslashtirildi.

Natijada, investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar samaradorligini baholash asosan ishlab chiqarish sohalari misolida yoritilgan bo'lib, bunda natijadorlik ko'proq moliyaviy ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Biroq oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirilgan investitsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning natijalari nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional omillar orqali ham namoyon bo'ladi. Shu sababli, investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda an'anaviy yondashuvlarni kengaytirish zarurati yuzaga keladi (1-jadval).

5 Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi: o'quv qo'llanma /i.f.d., prof. A.V.Vahobovning umumiy tahriri ostida. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

6 Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). — Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. — 197 b.

7 Keynes J.M. (1937) The general theory of employment. The Quarterly Journal of Economics. № 51(2). P. 209-223

8 Knight F.H. (1921) Risk, uncertainty and profit. Boston, MA: Houghton Mifflin Company. pp. 313-350

9 Becker G.S. (1964) Human capital: a theoretical and empirical analysis, with special reference to education. New York: Columbia University Press. pp. 24-58

1-jadval. Investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlari<sup>10</sup>

№	Mezoni turi	Baholash mezonlari (ko'rsatkichlar)	Asosiy baholash parametrlari	Tavsif
1	Aktivlar	Aktivlar hajmi va tarkibi; Investitsiya qaytimi (ROI – Return on Investment)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Umumiy aktivlar hajmi</li> <li>• Ta'lim infratuzilmasi ulushi</li> <li>• ROI (Return on Investment)</li> <li>• ARR (Accounting Rate of Return)</li> <li>• NPV (Net Present Value)</li> <li>• IRR (Internal Rate of Return)</li> <li>• Bir talabaga to'g'ri keladigan aktiv qiymati</li> </ul>	Investitsiyalar hisobiga shakllangan moddiy-texnik baza va infratuzilmaning yetarliligi hamda ulardan foydalanish samaradorligini baholaydi
2	Daromadlar	Daromadlar diversifikatsiyasi indeksi (DI – Diversification Index); Pul oqimlari marjasi (CF Margin – Cash Flow Margin)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kontrakt va grant daromadlari nisbati</li> <li>• Ilmiy loyihalar va xalqaro grantlar ulushi</li> <li>• Operatsion pul oqimlari barqarorligi (CF, Cash Flow)</li> <li>• CF Margin (Cash Flow Margin)</li> </ul>	Investitsiyalar natijasida daromad manbalarining kengayishi va ularning barqarorligini baholaydi
3	Moliyaviy mustaqillik	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (ER – Equity Ratio); Qarzdorlik koeffitsiyenti (DER – Debt-to-Equity Ratio)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ER (Equity Ratio)</li> <li>• DER (Debt-to-Equity Ratio)</li> <li>• FL (Financial Leverage)</li> <li>• Jalb qilingan mablag'lar ulushi</li> </ul>	Muassasaning kapital tuzilmasi va moliyalashtirish manbalari barqarorligini baholaydi
4	Likvidlik va to'lov qobiliyati	Joriy likvidlik (CR – Current Ratio); Tezkor likvidlik (QR – Quick Ratio); Naqd likvidlik (CashR – Cash Ratio)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• CR (Current Ratio)</li> <li>• QR (Quick Ratio)</li> <li>• CashR (Cash Ratio)</li> <li>• Operatsion to'lovlarning o'z vaqtida bajarilishi</li> </ul>	Muassasaning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati va moliyaviy barqarorligini baholaydi

Mazkur jadval investitsiyalarni oshirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholashga qaratilgan kompleks indikatorlar tizimini ifodalaydi. Unda moliyaviy barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy komponentlar ya'ni aktivlar, daromadlar, moliyaviy mustaqillik va likvidlik, o'zaro uzviy bog'liqlikda va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Har bir mezon investitsiyalarning hajmi va ularning iqtisodiy samaradorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, muassasaning moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi, daromadlar shakllanishining barqarorligi hamda kapital tuzilmasining optimallik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur mezonlar tizimi moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'p o'lchovli va integrallashgan yondashuvni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar majmuasi investitsiya faoliyatining natijadorligini faqat alohida moliyaviy indikatorlar orqali emas, balki ularning moliyaviy barqarorlikka kompleks ta'siri nuqtai nazaridan baholash imkonini yaratadi. Ushbu yondashuv oliy ta'lim muassasalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini aniqlash, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash hamda strategik boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash uchun mustahkam metodologik platforma vazifasini bajaradi. Natijada,

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tadqiqotlar (Briley va boshqalar (2019), 104-112 bb., Berk va DeMarzo (2020), 67-74 bb; Pandey (2018), 552-570 bb.) asosida ishlab chiqildi.



investitsiyalarni oshirish asosida shakllangan moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash jarayonida indikatorlar tizimini ilmiy asosda shakllantirish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlik ko'p omilli iqtisodiy kategoriya sifatida resurslar hajmi, ularning samaradorligi hamda moliyaviy oqimlarning barqarorligi bilan tavsiflanadi. Shu bois, investitsiyalar ta'sirini aniqlashda umumiy tavsifiy yondashuvlardan ko'ra, aniq iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan va matematik ifodalar orqali o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi jadvalda investitsiyalar asosida moliyaviy barqarorlikni baholashga xizmat qiluvchi asosiy indikatorlar va ularning hisoblash formulalari tizimlashtirilgan holda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Investitsiyalar asosida moliyaviy barqarorlikni baholash ko'rsatkichlari<sup>11</sup>


Ko'rsatkich	Formula	Izoh
ROI (Investitsiya qaytimi)	$ROI = \frac{\text{Foyda}}{\text{Investitsiya}} \times 100$	Investitsiya samaradorligini ko'rsatadi
Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	$K_{mm} = \frac{\text{O'z kapitali}}{\text{Jami aktivlar}}$	Kapital barqarorligini ifodalaydi
Qarz ulushi koeffitsiyenti	$K_{qarz} = \frac{\text{Majburiyatlar}}{\text{Jami aktivlar}}$	Moliyaviy xavflilik darajasi
Joriy likvidlik	$K_{likv} = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}}$	Qisqa muddatli barqarorlik
Daromadlar diversifikatsiyasi indeksi	$D = 1 - \sum p_i^2$	Daromad manbalari xilma-xilligi
Aktivlar rentabelligi (ROA)	$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami aktivlar}} \times 100$	Aktivlardan foydalanish samaradorligi

Mazkur ko'rsatkichlar majmuasi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini kompleks va tizimli baholash imkonini beradi. Jumladan, ROI va ROA ko'rsatkichlari investitsiyalar hamda aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlashga xizmat qilsa, moliyaviy mustaqillik va qarzдорlik koeffitsiyentlari kapital tuzilmasining barqarorligini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, likvidlik ko'rsatkichlari qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini ifodalaydi, daromadlar diversifikatsiyasi indeksi esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda daromad manbalarining xilma-xilligini aks ettiradi. Natijada, mazkur indikatorlarning o'zaro uyg'unligi investitsiyalarni oshirish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini chuqur va ilmiy asosda baholash imkonini yaratadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimiga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi muassasalarining moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, investitsiyalar hisobiga aktivlar bazasi kengayadi, infratuzilma rivojlanadi, daromad manbalari ko'payadi hamda moliyaviy mustaqillik darajasi oshadi. Shu bilan birga, investitsiyalarning samaradorligi ularning to'g'ri taqsimlanishi va boshqarilishiga bog'liq bo'lib, bu omil moliyaviy barqarorlik darajasini belgilovchi muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholashda investitsiyalarning roli kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqilishi lozim. Bunda faqat investitsiyalar hajmi emas, balki ularning natijadorligi, daromad keltirish darajasi va moliyaviy oqimlarga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

11 Muallif tomonidan xorijiy (Briley va boshqalar (2019), 104-112 bb., Berk va DeMarzo (2020), 67-74 bb; Pandey (2018), 552-570 bb.) tadqiqotlar asosida tizimlashtirildi.



1-rasm. Investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlari tizimi<sup>12</sup>

1-rasmda investitsiyalarni oshirish asosida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholash mezonlari tizimi konseptual tarzda ifodalangan. Shunga muvofiq, investitsiya kapitalining hajmi va uning samaradorligi moliyaviy barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon natijasida moliyaviy barqarorlik to'rtta asosiy komponentlari, ya'ni aktivlar, daromadlar, moliyaviy mustaqillik va likvidlik ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Har bir komponent doirasida mos ravishda aktivlar hajmi va tuzilmasi, investitsiya qaytimi, daromadlar diversifikatsiyasi va barqaror daromad oqimlari, kapital ulushi va qarzdorlik darajasi, shuningdek, likvidlik ko'rsatkichlari va qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati kabi mezonlar aks ettirilgan. Mazkur ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'unligi oliy ta'lim muassasasining umumiy moliyaviy barqarorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini baholashda investitsiyalarning roli kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqilishi lozim. Bunda faqat investitsiyalar hajmi emas, balki ularning natijadorligi, daromad keltirish darajasi va moliyaviy oqimlarga ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlari investitsiyalarning samaradorligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bilan boyitilishi zarur.

Xususan, tadqiqot doirasida quyidagi asosiy mezonlar tizimi shakllantirildi: aktivlar hajmi va ularning tarkibi, o'z mablag'lari ulushi, daromadlar diversifikatsiyasi darajasi, investitsiyalar hajmi va ulardan olinayotgan iqtisodiy samaradorlik, shuningdek, moliyaviy mustaqillik va likvidlik ko'rsatkichlari. Ushbu ko'rsatkichlar investitsiyalarni oshirish natijasida yuzaga keladigan moliyaviy o'zgarishlarni baholash hamda oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini aniqlash imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni samarali baholash bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, investitsiyalarni oshirish oliy ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni yuksaltirish hamda muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarning hajmi va samaradorligini moliyaviy natijalar bilan bog'liq holda baholash, shuningdek, ushbu jarayonni ifodalovchi aniq mezonlar tizimini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masala

12 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.



hisoblanadi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiyalar hajmi va samaradorligi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy omillar hisoblanadi. Investitsiyalarni ko'paytirish nafaqat moliyaviy resurs bazasini kengaytiradi, balki muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlaydi, ularning daromad tuzilmasini diversifikatsiya qiladi va barqaror moliyaviy oqimlarni ta'minlaydi. Shuning uchun, investitsiyalarni ko'paytirish asosida moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlarini ishlab chiqish oliy ta'lim tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shuningdek, investitsiyalarni oshirish asosida moliyaviy barqarorlikni baholashda institutsional va tashkiliy omillarni ham hisobga olish muhimdir. Xususan, boshqaruv samaradorligi, strategik rejalashtirish darajasi hamda investitsiya faoliyatining muvofiqlashtirilganligi moliyaviy natijalarning barqarorligini ta'minlovchi muhim shartlar hisoblanadi. Shu bois, baholash mezonlari tizimi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki investitsiya jarayonining sifat jihatlarini ham o'zida aks ettirishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni oshirish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq moliyaviy barqarorlikni baholash jarayoni faqat investitsiyalar hajmini aniqlash bilan cheklanmay, balki ularning iqtisodiy samaradorligi, daromadlar shakllanishiga ta'siri hamda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini kompleks baholashni talab etadi. Oliy ta'lim tizimi sharoitida investitsiyalarning natijadorligi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari va inson kapitalining rivojlanishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlari tizimi ko'p o'lchovli va integrallashgan yondashuv asosida shakllantirilishi lozim.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, investitsiyalarni oshirish oliy ta'lim muassasalarining aktivlar bazasini kengaytirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirish hamda likvidlik darajasini yaxshilash orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi ushbu jarayonning hal qiluvchi omili bo'lib, u investitsiya qaytimi, daromadlar barqarorligi va kapital tuzilmasining optimalligi orqali namoyon bo'ladi. Demak, moliyaviy barqarorlikni baholashda investitsiyalarni faqat hajmiy emas, balki sifat va natijadorlik jihatidan ham tahlil qilish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalariga asosanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni baholash uchun investitsiyalar bilan uzviy bog'langan indikatorlar tizimini joriy etish lozim. Bunda ROI, ROA, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, daromadlar diversifikatsiyasi indeksi va likvidlik ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchiidan, investitsiyalarni oshirish jarayonida daromad manbalarini kengaytirish va ularni diversifikatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish zarur. Xususan, ilmiy loyihalar, xalqaro grantlar, innovatsion ishlanmalar va qo'shimcha ta'lim xizmatlari orqali barqaror moliyaviy oqimlarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Uchinchiidan, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital tuzilmasini optimallashtirish va qarz yuklamasini maqbul darajada saqlash zarur. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchiidan, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ularning natijadorligini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish lozim. Bu orqali moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini aniqlash va strategik boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Beshinchiidan, oliy ta'lim muassasalarida uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish tizimini rivojlantirish zarur. Bunda investitsiyalar hajmi, daromadlar prognozi va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarni oshirish asosida moliyaviy barqarorlikni baholash mezonlarini takomillashtirish oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, daromadlar barqarorligini oshirish hamda oliy ta'lim tizimining umumiy iqtisodiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025-y <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
3. Bekbayeva F.B. Analysis of the financial stability of an economic entity, "Innovations in Science and Technologies" илимий-электрон журналы, 325-332 bb., <https://zenodo.org/records/15640368>.



4. Moliyaviy barqarorlik haqida - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
5. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi: o'quv qo'llanma /i.f.d., prof. A.V.Vahobovning umumiy tahriri ostida. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
6. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). — Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. — 197 b.
7. Keynes J.M. (1937) The general theory of employment. The Quarterly Journal of Economics. № 51(2). P. 209-223
8. Knight F.H. (1921) Risk, uncertainty and profit. Boston, MA: Houghton Mifflin Company. pp. 313-350
9. Becker G.S. (1964) Human capital: a theoretical and empirical analysis, with special reference to education. New York: Columbia University Press. pp. 24-58.
10. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2019). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill. pp. 104–112
11. Berk, J., & DeMarzo, P. (2020). Corporate Finance. Pearson. pp. 67–74.
12. Pandey, I. M. (2018). Financial Management. Vikas Publishing. pp. 552–570.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)